

O' ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN'ATNING RIVOJLANISH TARIXI

Maxmudov Abdunabi Abdug'afforovich

A.Qodiriy nomidagi JDPU

Texnologik ta'lim va tasviriy san'at

fanlari kafedrası o'qituvchsi

Annotasiya: *O'zbekistonda san'at va madaniyatning rivojlanishi o'zining qadimiy tarixiga ega. U bir necha asr davomida va turli bosqichda san'at, madaniy merosimizni boyitdi. Ushbu maqolada O'zbekiston tasviriy san'atining asoschilaridan bo'lmish Kamoliddin Behzodning hayoti va ijodi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *tasviriy san'at, miniatyura maktablari, nafislik, noziklik, madaniyat, tarix.*

Kamoliddin Behzod - Buyuk miniatyurachi musavvir

Buyuk miniatyurachi musavvir, Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkori - Kamoliddin Behzod - Hirot miniatyura maktabi asoschisi, muzahhiblarning yetakchisi va ustoz bol'gan. Tarixchilardan Mirzo Muhammad Haydar, Do'st Muhammad va Qozi Ahmadning ma'lumotlariga ko'ra, Kamoliddin Behzodni Sulton Husaynning kitobdori Mirak Naqqosho'z tarbiyasiga olgan. Behzod musavvirlikni Pir Sayd Axmad Tabriziydan o'rgangan, o'z ijodida musavvir Xalil Mirzo Shohruxiy badiiy uslubini davom ettirib, univovjlantirgan va kamolga yetkazgan, yosh musavvir iste'dodi juda tez shakllangan ekan. Bunda Alisher Navoiyning murabbiylik faoliyati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Navoiyning shaxsiy kutubxonasida o'sha davrning yetuk san'atkorlari Mirak Naqqosh, Hoji Muhammad kabi musavvirlar, Hofiz Muhammad, Zayniddin Mahmud, Sulton Muhammad kabi xattotlar ijod bilan band bo'lganlar. Behzod shu kutubxonada, ayniqsa, xattot Sultonali Mashhadiy va Yoriy Muzahhib bilan yaqin ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Behzod ijodining mavzu doirasi, qahramonlari shu yerda — Navoiy va boshqa san'atkorlar ijodi ta'sirida kamol topgan.

Kamoliddin Behzod musavvir sifatida tanilgach, Sulton Husayn saroyiga xizmatga chaqirilgan. 1487- yil Sulton Husayn farmoni bilan Behzod saltanat kutubxonasiga rahbar etib tayinlangan. Keyinchalik bu joy o'z davrining badiiy akademiyasiga aylangan. Uni mutaxassislar "Nigorxonayi Behzod" yoki "Behzod akademiyasi" deb ataganlar. Musavvir Hirotida Navoiy va Sulton Husayn hayotlik davrida qizg'in ijod bilan band bo'dgn, ko'plab mo'tabar qo'lyozmalarni yaratishga rahnamolik qilgan, ma'lum qismini nafis

rasmlar bilan ziynatlashda shaxsan ishtirok etdi, qator zamondoshlarining — Navoiy, Jomiy, Sulton Husayn va boshqalarning chexrai kushoylarini yaratdi, bir guruh yoshlarga rassomlik sirlarini o'rgatdi.



Kamoliddin Behzod

(1455 yil — Hirot shahri, Temuriylar davlati — 1536 yil - Hirot shahri, Safaviylar davlati)

1507—10 yillarda Behzod Hirotni egallagan Muhammad Shayboniyxon xizmatida bo'ldi. Bu davrdan bizgacha Behzod yaratgan Shayboniyxon portreti yetib kelgan. 1510-yil Hirot shahri safaviylar qo'liga o'tadi. 1520-yilda Shoh Ismoil yosh shahzoda Tahmosibga rasm o'rgatishi uchun Behzodni o'z saltanati poytaxti Tabriz shahriga taklif etadi, 1522-yil esa maxsus farmon bilan rassomni o'z kutubxonasidagi kitobat axli (kotib, naqqosh, muzaxlib, jadvalkash, halkor, zarko'b, lojuvardsho'y va boshqalar)ga mutasaddi etib tayinlaydi. 1524-yil Shoh Ismoil vafotidan keyin Shoh Tahmosib davrida ham Behzod katta obru va e'tiborga ega bo'lgan. Tabrizda Behzod Sulton Muhammad, Og'a Mirak va Mir Mansur kabi musavvirlar bilan hamkorlikda ijod qildi. Qozi Ahmadning ma'lumotiga ko'ra, Behzod hayotining oxirida ona shaxri - Hirotga qaytgan va shu yerda vafot etgan. Musavvirning qabri Ko'hi Muxtorning (hozirgi Afg'oniston hududida) xushmanzara joyida joylashgan.

O'rta Sharqda XVII-asrgacha rassomchilikda asosiy taraqqiyot yo'nalishini belgilab bergan Behzod ijodi uning zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan. Behzod o'zidan oldingi rassomlar an'analarini davom ettirdi va boyitdi. Asarlarining tarxi murakkab, erkin harakatlarga boy, yorqin, jozibador ranglardan tuzilgan bo'lib, ular o'zaro uyg'un. Tabiat jonli, hayot manzaralari aniq va haqqoniy, ishonarli va ta'sirchan tasvirlangan. Chiziqlar

nihoyatda nozik, ranglar nafis ishlangan. Portretlarida inson ma'naviy qiyofasi, ruhi, his-tuyg'ulari, xulq-atvorini aks ettirishga ahamiyat bergan.



Kamoliddind Behzod (chapda) va Muhammad Shayboniyxon

Sa'diyning "Bo'ston" asari qo'lyozmasi (1478, Dublindagi Chester Bitti kutubxonasida) rasmlari, Attorning "Mantiq-ut-tayr" asari qo'lyozmasiga (1483, Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyida) 1487-yil chizilgan rasmlar, Navoiyning "Hamsa" qo'lyozmasiga (1485, Oksforddagi Bodli kutubxonasi va Manchesterdagi Jon Reylands kutubxonasida) ishlangan "Xoja Abdulloh Ansoriy darvishlar bilan suhbatda", "Moniy Baxromga Diloromning rasmini ko'rsatmoqda" va boshqa miniatyuralar Behzodga nisbat beriladi. Sa'diyning "Bo'ston" asarining Misr nusxasi (1488, Qohiradagi Milliy kutubxonada) rasmlari (qo'lyozmani xattot Sultonali Mashhadiy ko'chirgan, naqshlarni Yoriy Muzahqib yaratgan) —12 ta rasmdan 6 tasida Behzodning imzosi bor: "Sulton Husayn saroyida ziyofat" (qo'sh rasm), "Doro va otboqarlar", "Masjiddagi bahs", "Olimlar suhbat", "Zulayhoning Yusufga iltijosi" nomli rasmlar Behzod tomonidan yaratilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari qo'lyozmasining (1467, AQSH, Baltimordagi Jon Xopkins universitetida) xattot Sherali ko'chirgan nusxasidagi 12 miniatyuraning 8tasi (15-asr 90-yillari) Behzod asaridir. Rasmlarda rasmiy qabul, jang lavhalari, qal'a qamali bilan bir qatorda Samarqanddagi Bibixonim masjidi qurilishini tasvirlovchi qo'shaloq rasm ham mavjud. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarining xattot Sulton Muhammad Nur ko'chirgan nusxasiga (1528, Hirot, Tehrondagi Saltanat kutubxonasida) Behzod rasmlar chizgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.Oydinov. Ajdodlarimiz san'ati va etiqodi. Toshkent." O'qituvchi" 1992 y.
- 2.O'zbekiston san'ati. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kom'aniyasi bosh taxririya. 2001 y.
3. P. Shobaratov. Miniatur —T.: Iqtisod-moliya, 2011